

BO‘LAJAK OFITSERLARDA PERTSEPTIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI HAMDA DIDAKTIK MODELII

Turaxujayev Orif Sirojiddinovich

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi kafedra boshlig‘i

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Bo‘lajak ofitserlarda pertseptiv kompetentlikni rivojlantirish, ularning kasbiy metodik tayyorgarligini takomillashtirib borish, mexanizmlarini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega ekanligi, Qobiliyat, Qobiliyatlar rivojlanishining keyingi darajasi – iste’dod haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Qobiliyat, Qobiliyatlar rivojlanishining keyingi darajasi – iste’dod, Pedagog kadrlarning kasbiy mahorati, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar, Bo‘lajak ofitserlarda pertseptiv kompetentlikni rivojlantirish, kasbiy metodik tayyorgarlikni takomillashtirish, yangi o‘qitish texnologiyalari, zamonaviy taraqqiyot bosqichi, amaliy pedagogik faoliyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается важность развития перцептивной компетентности у будущих офицеров, совершенствования их профессионально-методической подготовки, глубокого научного изучения их механизмов и применения их на практике.

Ключевые слова: Практическая педагогическая деятельность, профессиональное мастерство педагогических кадров, творческое и системное мышление, самостоятельность принятия решений кадрами, развитие перцептивной компетентности будущих офицеров, совершенствование профессионально-методической подготовки, новые технологии обучения, современный этап развития, практическая педагогическая деятельность.

ABSTRACT

This article discusses the importance of developing perceptual competence in future officers, improving their professional methodological training, in-depth scientific study of their mechanisms and their application in practice.

Keywords: Practical pedagogical activity, Professional skills of pedagogical staff, creative and systematic thinking, independent decision-making staff, development of perceptual competence in future officers, improvement of professional methodical training, new teaching technologies, modern stage of development, practical pedagogical activity.

Qobiliyat insonning shunday psixologik xususiyatidirki, bilim, ko'nikma, malakalarini egallash shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Lekin, bu xususiyatlarning o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi. Malaka, ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlari qandaydir imkoniyat tarzida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi haqiqatdir. Bolada namoyon bo'ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo'lishi uchun imkoniyatlar, maxsus ta'lim berilishi, qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'pgina sharoitlar bo'lishi kerak. Bularsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turib so'nib ketishi mumkin.


Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. O'quvchida ham zaruriy ko'nikma va malaka tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy psixologik xatosi bo'ladi.

Qobiliyatlarning rivojlanishi uchun dastlab iste'dod nishonalari iborat bo'lgan muayyan asos bo'lishi zarur. Iste'dod nishonalari ostida, qobiliyatlar rivojlanishining tabiiy asosini tashkil etuvchi asab tizimining anatomik-fiziologik xususiyatlari tushuniladi. Masalan, qobiliyatning tug'ma nishonalari sifatida turli analizatorlar rivojlanishining xususiyatlari namoyon bo'lishi mumkin. Xuddi shunday, eshitish idrokining muayyan xarakteristikalarini musiqiy qobiliyatlarning rivojlanishi uchun asos sifatida yuzaga kelishi mumkin. Intellektual qobiliyatlarning nishonalari esa, avvalambor, miyaning u yoki bu darajadagi qo'zg'aluvchanligida, asab jarayonlarining harakatchanligida, vaqtincha aloqalarning hosil bo'lish tezligida, ya'ni, I.P. Pavlov genotip – asab tizimining tug'ma xususiyatlari deb atagan miya faoliyatining shular kabi vazifalarida namoyon bo'ladi.


Nishonalarning rivojlanishi – bu tarbiya sharoitlari va jamiyat rivojlanishining xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy shartlangan jarayon. Jamiyatda u yoki bu kasbga ehtiyoj tug'ilgan sharoitda nishonalar rivojlanadi va qobiliyatlarga aylanadi; nishonalar rivojlanishining ikkinchi muhim omili tarbiyalash xususiyatlari hisoblanadi.

Qobiliyatlardan farqli ravishda nishonalar insonning ularga murojaat qilishi yoki qilmasligi, amaliyotda foydalanishi yoki foydalanmasligidan qat'iy nazar, uzoq vaqt davomida mavjud bo'lib, saqlanishi mumkin.

Shunday qilib, nishonalar o'zida qobiliyatlarni jamlamaydi va ularning rivojlanishini kafolatlamaydi, deb aytish mumkin. Ular faqat qobiliyatlar rivojlanishining shartlaridan biri bo'lib hisoblanadi.



Qobiliyatlarning juda ko‘p turlari mavjud. Hozirgi zamon psixologiyasida inson qobiliyatlarining tasniflanish turlari ko‘pchilikni tashkil etadi. Ularning ichidagi umumiy tasniflashga ko‘ra qobiliyatlar ikki guruhga: umumiy va maxsus qobiliyatlarga bo‘ladi. Bu guruhlarning har biri oddiy va murakkab, guruh ichida esa alohida turlarga bo‘linadi.



Qobiliyat deb, insonni u yoki bu faoliyatning samarali bajarilish imkoniyati bilan ta‘minlovchi layoqatlarning o‘ziga xos uyg‘unligiga aytiladi. Ushbu ta‘rifda qobiliyatga bog‘liq ravishda faoliyatning samarali bajarilishi emas, balki, faqat shunday bajarilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatga e‘tibor qaratish lozim. Faoliyatni samarali tarzda amalga oshirish uchun muvofiq keladigan qobiliyatlar uyg‘unligining

mavjudligi emas, balki, zarur bilim va ko'nikmalarning egallanganligi ham muhimdir. Qobiliyat faqat u yoki bu faoliyatda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatini belgilaydi, bu imkoniyatning joriy qilinishi esa muayyan qobiliyatlarning rivojlanish darajasi va qanday bilim va ko'nikmalarning egallanganligi bilan belgilanadi.¹

Inson qobiliyatlarini xarakterlaganda ko'pincha, ular taraqqiyotining mohirlik deb ataluvchi, ya'ni, ma'lum faoliyatda mukammallikka erishish darajasi alohida ko'rsatiladi. Insonning mohirligi haqida so'z yuritilganda, avvalambor, uning ishlab chiqaruvchi faoliyat bilan muvaffaqiyatli shug'ullanish qobiliyati nazarda tutiladi. Lekin bu, mohirlik orttirilgan malaka va ko'nikmalarning yig'indisi, degani emas. Mohirlik yuzaga keladigan muammolarni ijodiy hal qilishga psixologik shaylikni taqazo etadi. "Mohirlik – bu "nima" va "qanday" larning bir vaqtning o'zida kelishi", - deb bejizga aytilmagan, bu bilan, usta uchun ijodiy masalani anglash bilan uni echish usullarini topishning o'rtasida uzilish mavjud emasligi ta'kidlanadi.

Qobiliyatlar rivojlanishining keyingi darajasi – iste'dod. "Iste'dod" so'zi muqaddas kitoblarda uchraydi, bunda kumush o'lchov birligi nazarda tutilgan, kumushni xo'jayinidan olgan tanbal ishchi uni tijoratga ishlatib, foyda olishning o'rniga, yerga ko'mib qo'ygan ("Iste'dodini yerga ko'mgan" iborasi shundan paydo bo'lgan). Hozirda iste'dod deb, maxsus qobiliyatlar (musiqiy, adabiy, matematik va boshqalar)ning yuqori rivojlanish darajasiga aytiladi. Iste'dod faoliyatda namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Iste'dodli odam faoliyati yangiligi, yondoshuvning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Iste'dod – bu qobiliyatlar yig'indisi. Alohida chegaralab qo'yilgan qobiliyat, yuqori darajada rivojlangan bo'lsada, iste'dod deb atalishi mumkin emas. Masalan, buyuk iste'dodlar ichida yaxshi xotira va yomon xotira egalarini aniqlash mumkin. Bu inson ijodiy faoliyatida xotira – muvaffaqiyatga erishishning omillaridan biri ekanligiga bog'liq. Lekin natijalarga aqlning teranligi, boy fantaziya, kuchli iroda, chuqur qiziqishlarsiz erishib bo'lmaydi.

Qobiliyatlar taraqqiyotining oliy darajasi geniallik deb ataladi. Insonning ijodiy yutuqlari jamiyat hayoti, madaniyat rivojida butun bir davrni tashkil etganida geniallik haqida so'z yuritiladi. Genial odamlar juda ozchillikni tashkil etadi.

Qobiliyatning tug'maligini inkor qilish absolyut tabiatga ega emas. Psixologiyada qobiliyatning tug'ma ekanligini tan olinmas ekan, bu bilan miyaning tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan differensial xususiyatlarning tug'maligini inkor qilmaydi. Qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining sezgi a'zolariga va funksional xususiyatlariga layoqat deb ataladi. Layoqat ko'p

¹ Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.

qirralidir. Shaxs tomonidan qo'yilgan talablarning tabiatiga bog'liq ravishda aynan bir xil layoqatlar asosida har xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin.

Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvafaqqiyatli amalga oshishi ko'p jihatdan pedagogning maxsus pedagogik qobiliyatlarni egallaganligiga bog'liq: T.I.Gavakov pedagogik qobiliyatlarni quyidagi tarzda guruhlashtirishni taklif etadi: ob'yekt (ta'lim oluvchilar)ni his eta olish; kommunikativ (kishilar bilan aloqa o'rnatish, samimiylik, muloqotchanlik); pertseptiv (kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik intuitsiya); shaxs dinamik (irodaviy ta'sir ko'rsatish va mantiqiy ishontirish qobiliyati); emotsional barqarorlik (o'z-o'zini boshqara olish qobiliyati); kreativ (ijodiy ishga qobiliyatlilik).¹

Pedagog olim I.P.Podlasiy pedagogik qobiliyatning tuzilishini quyidagi tarzda aniqlashtirgan:

1) tashkilotchilik – ta'lim oluvchilarni jipslashtirish, ularning faoliyatini rejalashtirish, jamoaviy ishga jalb etish, yakunlarini chiqarish;

2) diagnostik – o'quv materialini tanlay olish, o'quv materialini tushunarli, aniq, obrazli, ishonchli va tizimli bayon eta olish; o'quvchilarning bilishga qiziqishlari va intellektini rivojlantirishni rag'batlash, o'quv-biluv faolligini oshirish hamda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va ijodkorlikka qobiliyatlilik;

3) pertseptiv – ta'lim oluvchilarning ichki olamiga ta'sir ko'rsatish; ularning emotsional holatini xolis baholash, psixikasidagi o'ziga xosliklarni aniqlay olish ko'nikmasi;

4) kommunikativ – ta'lim oluvchilar va jamoa bilan pedagogik maqsadga qaratilgan munosabatni o'rnatish olish ko'nikmasi;

5) suggestiv (suggestiya - ishontirish) – o'quvchilarga emotsional ta'sir ko'rsatish;

6) tadqiqotchilikka doir – pedagogik jarayon va vaziyatlarni anglash hamda ob'ektiv baholay olish ko'nikmasi;

7) ilmiy-bilishga doir – tanlangan ixtisoslikka doir belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallay olish qobiliyati;

gnostik – ob'yekt, jarayonni va o'z faoliyati natijalarini tadqiq etish hamda olingan natijalar asosida uni korrektsiyalay olish qobiliyati.²

Pedagogika va psixologiya sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga asoslanib, bizningcha, o'qituvchining pedagogik qobiliyatlarini quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

¹ Qo'chqorova N.M. Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik./ Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2022. – 260 b.

² O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 4-jild – T.: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2002. - 682-b.



1. Didaktik qobiliyat – bu oson yo‘l bilan murakkab bilimlarni o‘quvchilarga tushuntira olishdir. Bunda o‘qituvchining o‘quv materialini o‘quvchilarga tushunarli qilib bayon etishi, mavzu yoki muammoni ularga aniq va tushunarli qilib aytib berishi, o‘quvchilarda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg‘ota olishi ko‘zda tutiladi. O‘qituvchi zarurat tug‘ilgan holatlarda o‘quv materialini o‘zgartira, soddalashtira oladi, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, tushunarsiz, noaniq narsani tushunarli qila oladi.

2. Akademik qobiliyat – barcha fanlar yuzasidan muayyan bilimlarga ega bo‘lishlik. Bunday qobiliyatlarga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z fanini o‘quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o‘z fani sohasidagi yangiliklarni kuzatib boradi. Fan-texnika, ijtimoiy-siyosiy hayotga doir qiziqishlari bilan ko‘p narsalarni o‘rganib boradi.

3. Pertseptiv qobiliyat – qisqa daqiqalarda o‘quvchilar holatini idrok qila olish fazilati, bu o‘quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish qobiliyati, o‘quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna olish bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik kuzatuvchanlikdir. Bunday o‘qituvchi kichkinagina alomatlar, uncha katta bo‘lmagan tashqi belgilar asosida o‘quvchi ruhiyatidagi ko‘z ilg‘amas o‘zgarishlarni ham fahmlab oladi.

4. Gnostik qobiliyat – tadqiqotga layoqatlilik bo‘lib, o‘z faoliyatini, bu faoliyat jarayonini va uning natijalarini tekshirish hamda o‘rganish natijalariga muvofiq faoliyatni qayta qurish qobiliyatidir.

Pedagogik qobiliyatlarni har tomonlama o‘rganish qobiliyatlar shaxsning aql-idroki, his-tuyg‘usi va iroda sifatlarining namoyon bo‘lishidan iborat ekanligini ko‘rsatdi. Pedagogik qobiliyatlar umumiy qobiliyat: masalan, adabiy va ilmiy ijod qilish, loyihalash qobiliyatlari bilan bog‘langan. Ular o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini oshiradi. Bunday o‘qituvchilar o‘z o‘quvchilarini (talabalarni) ana shu

faoliyatga jalb qila borib, ularga ta'lim va tarbiya berishda katta muvaffaqiyatlarga erishmoqdalar.

Barqarorlik, ijtimoiy farovonlik, aholining tinch-osuda hayot kechirishi uchun barcha imkoniyatlarni ta'minlash va shu asnoda eng muhimi, suverenitetimiz, istiqloq tufayli erishgan yaxlitligimiz mustahkamligini ta'minlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda olib borilayotgan harbiy islohotlar, yurtimizda barqarorlikni yanada chuqurroq ta'minlashga qaratilgan barcha ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar yetuk harbiy xizmatchi, bo'lajak ofitser shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgandir.

Hozirgi kunda jahon miqyosida vaziyat qanday tez o'zgarib, dunyoning ayrim mintaqalarida ahvol tobora keskin tus olayotgani, turli qarama-qarshiliklar, mo'jaro va qon to'kishlar kuchayib, xalqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizm xavfi ortib borayotgani, yaqin yon-atrofimizda davom etayotgan harbiy to'qnashuvlar bizda chuqur tashvish va xavotir tuyg'usini uyg'otmasdan qolmaydi, albatta. Yuzaga kelayotgan ana shunday murakkab va oqibatini oldindan aytib bo'lmaydigan vaziyat barchamizdan yuqori darajadagi ogohlikni saqlash va doimiy tayyorgarlik holatida bo'lishni, milliy armiyamizni yanada isloh etishga qaratilgan e'tiborni kuchaytirishni, uni zamonaviy qurol-yarog'va harbiy texnika bilan ta'minlash, qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi samarasini oshirishni, bir so'z bilan aytganda, Qurolli Kuchlarimizning salohiyati va jangovar qobiliyatini har tomonlama mustahkamlashni talab etadi», deya ta'kidlagan. Qurolli Kuchlarimiz oldida eng mas'uliyatli vazifa, ya'ni, eng ulug' ne'mat – Vatan mustaqilligi, uning tinchligini xalqaro terrorizm va ekstremizm balosidan himoya qilish vazifasi turibdi.

Shu nuqtai nazardan, davlat barqarorligiga qarshi qaratilgan tahdidlarning mavjudligini inobatga olsak, bo'lajak ofitser ularning salbiy mohiyatini tushunib yetadigan, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila

oladigan, o'z burchi va qasamyodiga sodiq qoladigan, xizmat manfaatini shaxsiy manfaatdan doimo ustun qo'yib, zimmasidagi vazifani bajaradigan kompetent shaxs bo'lishi lozim.

Bu borada bo'lajak ofitserlardan doimo o'z ustilarida tinmay ishlashlari, jismoniy, ruhiy va kasbiy jihatdan tayyorgarliklari yuqori darajada bo'lishiga erishishlari talab etiladi. Bu esa o'z navbatida Qurolli Kuchlarimiz safida harbiy xizmat o'tayotgan har bir bo'lajak ofitserda, ayniqsa ofitserlar va serjantlarda kasbiy kompetentlikni tarbiyalash masalasi dolzarb ekanligiga urg'u beradi.

Bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligi o'z faoliyatlarining barcha yo'nalishlarida namoyon bo'ladi. Shu bois, bugungi kunda ofitserlar va serjantlarda kasbiy kompetentlikni tarbiyalashning barcha komponentlari, tamoyillari,

mexanizmlarini shakllantirish talab etiladi.¹ Zero, bo'lajak ofitserlarning kasbiy kompetentligini tarbiyalash deganda, avvalambor chuqur bilim va yuksak intellektual salohiyat, o'z harbiy burchini bajarishda qat'iy iroda va puxta tayyorgarlik sifatlarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Xulosa qilib aytganda, barcha bo'g'indagi bo'lajak ofitserlarning kasbiy faoliyati ofitserlar, serjantlar, kursantlar va askarlarda kompetentlik va ularning tarkibiga kiruvchi muhim komponentlar, mexanizmlar, tamoyillarni shakllantirish, shuningdek, o'quv faolyatining kasbiy yo'nalganligini ta'minlashga yordam beradigan pedagogik shart sharoitlarni yaratish harbiy bilim yurtlari va serjantlar tayyorlash maktablarining o'quv tizimini takomillashtirishning muhim vazifalaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.; “O'zbekiston”, 2021.-457 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyev ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalari bo'yicha videoselektordagi nutqi. 2021-yil 19 yanvar
3. Abdullayeva Sh.A., Ro'ziyeva D.I. Pedagogik diagnostika va korreksiya. Toshkent 2018 yil., 117 bet.
4. Axmedova M.T. Pedagogik kompetentlik (uslubiy qo'llanma): 5110900 – Pedagogika va psixologiya / -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2018. - 80 bet.
5. Alimov B.N. Kompetentsiyaviy yondashuv – o'quvchilarning matematik savodxonligi va madaniyatini oshirish vositasi sifatida. // «Uzluksiz ta'lim» ilmiy-uslubiy jurnali, T., 2015, 1-son.
6. Bashina T. F., Ilyin Ye. P. Psixologiya tvorchestva, kreativnosti, odarennosti. — CPB.: Piter, 2009. 62-b.
7. Harbiy xizmatchilarning nizomga xilof munosabatlarini oldini olish uchun uslubiy ko'rsatmalar. – T.,1999.

¹ Shoyusupova A.A., Kamalova S.R. Malaka va kompetentsiyalarni baholash. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2012.